
Subsidiya asosida tikuv mashinasi olgan Irodaxon Umarova tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi

"O'zbekiston" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi fuqaro Irodaxon Umarova "Ayollar daftari"ga olinib, bandligi ta'minlanishi belgilangan. Xotin-qizlar faolining o'rganishlariga asosan hokim yordamchi Shohruxmirzo Yo'ldashevning tavsiyasiga ko'ra, subsidiya asosida tikuv mashinasi ajratildi.

Irodaxon Umarova qizi Mohinur, shuningdek mahalladagi 3 nafar shogirdlariga ham tikuvchilik sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda. Ish hajmining ortishi, buyurtmalarning ko'payishi sababli, I.Umarova imtiyozli kredit asosida 2 ta zamonaviy tikuv mashinasi ham oldi.

Hozirda tikuvchilar tomonidan yostiqlar, erkaklar va ayollar kiyimlari, ko'rpa va to'shak qoplamalari tayyorlanib mahalliy bozorlarga yetkazilmoqda.

2023-03-25 14:50:26